

INGLIZ TILINI OSON O'RGANISHNING QIZIQARLI VA SAMARALI YO'LLARI

Erkinova Dilnura Aminjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Ilmiy raxbar: **Zubaydova Nilufar Negmatullayevna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini tezda o'rganishning qiziqarli va foydali tomonlari haqida ma'lumot beriladi. Til o'rganuvchi qay tarzda, qay usulda tilni mukammal o'rganishi o'rganishi va u sababli ko'p yutuqlarga ega bo'lish uchun bir qancha usullar keltirilgan. Barchasi insonlar uchun tilni oson o'rganishiga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: lug'at, talaffuz, tinglash, film, tibbiyot, iqtisodiyot, ibora, karyera, kommunikatsiya, speaking, motivatsiya.

Kirish. Ko'plab mamlakatlarda barcha insonlar til o'rganyapti, rus, ingliz, koreys, arab va hakoza. Chunki, o'rganish inson uchun ko'plab sharoitlar yaratib beradi. Bugungi kunda ingliz tili dunyoning ko'plab mamlakatlarida eng muhim til sanaladi. Ingliz tilini o'rganish nafaqat til bilish, balki chet davlatlariga borish uchun yo'llanmalar ham olishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, karyera, kommunikatsiya, yangi madaniyat, atrof- muhit, tajriba, bilimlarni kuchaytirish uchun ham ingliz tilini yaxshi bilish talab etiladi. Shuningdek, ingliz tilini faqat o'zining sohasi bo'yicha o'rganish uchun emas, boshqa foydali tomonlari borligi uchun ham o'rganishimiz kerak. Masalan, hozirgi kunda faqatgina chet tiki institutiga o'qiydigan talabalar emas boshqa institutda o'qiydigan talabalar ya'ni iqtisodiyot, tibbiyot kabi institutlarda o'qiydigan talabalar, yoshi katta o'qituvchilar ham o'rganishiga qiziqishi va extiyoji bor. Ba'zi insonlar ingliz tilini o'rganishda qiyinchilikka uchraydi chunki ularda ingliz tilini qanday o'rganish uchun ba'za yetarli emas. Shuningdek, ingliz tilini o'rganish qiyin bo'lishiga qaramasdan bir qancha oson va foydali yo'llarni keltirib o'tmoqchiman.

Asosiy qism

1. Kundalik hayotda faqat ingliz tilidan foydalanish. Ingliz tilini o'rganishning eng samarali usullaridan biri kundalik hayotimizda foydalanishimiz kerak ya'ni, qayerda bo'lsak, nimadir ish qilsak, kim bilandir gaplashsak ham barchasini ingliz tilida bajarishimiz kerak. Hozirgi kunda ko'p uchratadigan holat, agar kam so'z bilib, gapirishga qiynalsak lug'at boyligimizni oshirishimiz kerak. Bundan tashqari, mobil

ilovalar (Duolingo yoki onlayn platformalar, BBC learning English, Shadowing lessons) kabilar foydalidir.

2. *Lug'at so'zlarni ko'p yodlash va ularni oshirish.* Ingliz tilini o'rganish jarayonida yangi lug'at so'zlar muhim ro'l o'ynaydi. Biz so'zlarni yodlamasak ingliz tilini to'liq o'rganolmaymiz. Har kuni vaqtni belgilab, yangi lug'atlar yodlashga odatlanishimiz kerak, ularni yaxshi esda saqlashimiz uchun speakingda ko'proq qo'llashimiz zarur. Masalan, bitta yangi iborani o'rganib uni qayta-qayta aytishni mashq qilishimiz kerak, bu juda samarali usul. Agar so'zlarni to'g'ri va ravon aytishni mashq qilsak, ular uzoq muddatga yodimizga qoladi.

3. *Talaffuz va tinglashni mashq qilish.* Ingliz tilini o'rganishda talaffuz katta ahamiyatga ega. Biz ingliz tilini o'rganayotganimizda so'zlarni talaffuziga ham e'tibor qaratamiz. Masalan, yangi so'z, ibora, collocationlar o'rgansak ularni talaffuzini ham to'g'ri aytishimiz kerak. Shuningdek, ularni yaxshilab tinglab keyin gapirganimizda qo'llay olamiz. Avvalo, tinglab tushunib olishimiz kerak. Buning uchun bizga (Youtube, Forvo, spechling, podcast) ilovalari yordam beradi Biz bulardan kundalik hayotimizda foydalansak, tinglab tushinishimiz oson bo'ladi. O'shanda ingliz tilini o'rganishimiz oson bo'ladi.

4. *O'qish va gapirish amaliyoti.* Ingliz tilida kitoblar, maqolalar yoki qisqa hikoyalarni o'qish so'z boyligimizni oshirish uchun muhim sanaladi. Avvalo, ingliz tilini o'rganishda boshlang'ich materiallardan foydalanish kerak. Oddiy, tushunarli, maqolalar o'qib boshlab, so'ngra qiyinlariga o'tish tavsiya etiladi. Chunki, birdan qiyinidan boshlash, o'rganuvchi uchun qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek, har kuni qisqa-qisqa ingliz tilida xat, kundalik yozishga harakat qilishimiz kerak va yozganlarimizni amalda qo'llay olishimiz kerak. Kimgadir murojaat qilmoqchi bo'lsak ham ingliz tilida gapirishga odatlanishimiz kerak. Shuningdek, speakingni oshirish uchun (Hello, Speak Fluent English Lucide AI, Ielts speaking) Bu usullar ingliz tilini o'rganishda samarali usul sanaladi.

5. *Filmlar va seriallarni kuzatish orqali.* Ingliz tilini o'rganayotgan jarayonda turli xil inglizcha video, lavha, kino, seriallar ko'rishimiz ancha yordam beradi. Biz qanchalik ko'p ingliz tilida seriallar ko'rsak shunchalik ko'p tajribaga ega bo'lamiz. Qachonki, kino ko'rsak tuahunishimiz oshadi, subtitrlarni o'rganamiz, qolaversa yangi so'zlarni eslab qolamiz, fikrlashimiz, dunyoqarashimiz oshadi. Masalan, (Friends, The Office, The Miracle worker) kabi mashhur seriallar va oddiy filmlarni tushunarli bo'ladi.

6. *Sabr va motivatsiya.* Bu jarayonda turli xil muommolarga duch kelishlik mumkin. Avvalo, til o'rganish sabr-toqat birinchi o'rinda. Til o'rganishni sabr bilan

o'rganishni boshlab, chiroyli davom ettirishimiz lozim. Yangi tilni o'rganish ancha murakkab, boshlanishda ma'suliyati og'ir ana shu paytda sabrli bo'lib, o'rganishda davom etish to'g'ri ish. Ingliz tilini o'rganayotganimizda motivatsiya ham katta ahamiyatga ega. Til o'rganishda ko'pgina bosim bo'lgani uchun kimningdir motivatsiyasiga extiyoj sezamiz, o'sha paytda yoshi ulug' insonlarimizni duosini olib o'rganishdan, izlanishdan to'xtamasligimiz kerak.

Xulosa

Ingliz tilini o'rganish jarayoni qiziqarli va samarali bo'lishiga qaramasdan qiyinchiliklari ham mavjud. Ammo inson bir foydali iahni boshladimi uni oxiriga yetkazishi kerak. Til o'rganayotganda avvalo, vaqtni to'g'ri taqsimlay olish kerak, uyqu rejimini to'g'irlash va kun davomida keraksiz narsalarga vaqt ajratmasdan foydali ma'lumotlarni eslab qolishga harakat qilish kerak. Ingliz tilini tezda o'rganish uchun yuqorida aytib o'tgan oson yo'llarni qo'llaymiz uni kundalik hayotda odatga aylantirsak bu bizning yuyutug'imiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Номинативные особенности языковых единиц, Молодой ученый, 212-213, 2018.
2. UM Azamatovna, The History of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples.
3. НМ Сулейманова, АРЎ Идиев, Макрономинатив Маъно Ортида Макропропозитив Структура Ҳақида, Academic research in educational sciences 2 (4), 798-802, 2021.
4. GU Rustamova, Lingvistik Pragmatikaning Birliklari, Филологические науки 11, 0.
5. Н Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши.
6. МА Ubaydullaeva, The History of The Development of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ..., 2022.
7. НМ Сулейманова, Мм Бобожонова, Связь Номинативных Значений Слова С Пропозитивной Структурой Лингвистика И Методика: Междисциплинарный Подход, 141-144, 2020.
8. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Номинативные особенности языковых единиц, Молодой ученый, 212-213, 2018.
9. Н. М Сулейманова, О Структурной Схеме Номинативного Значения, Ученый XXI века, 2016.

10. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Some aspects of cognitive linguistics, including pragmatic factors, Современные исследования и перспективные направления инновационного развития ..., 2018.
11. qizi To‘yeva, M. S. (2022, November). YANGI O‘ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G‘ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
12. Valieva, N. (2020). King Ṭanṭawədəm's land charter: state of the art and new perspectives.
13. Valieva, N. (2023). MS Parma, Biblioteca Palatina, Parm. 3852: a meeting point for a medieval Ethiopian king-usurper with modern pro-Italian actors. Manuscript and Text Cultures (MTC), 2(1).